

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **98 783,4 mlrd. so'mni** tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda **6,8 %** ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan **110,2 %** ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi **5,3 %** ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	83 950,0	98 783,4	106,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 325,3	95 186,1	106,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2 624,7	3 597,3	109,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 325,3	95 186,1	106,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	26 119,8	29 986,0	104,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	20 828,0	24 137,0	108,4
sanoat	14 491,8	16 843,3	107,2
qurilish	6 336,2	7 293,7	111,1
xizmatlar	34 377,5	41 063,1	107,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 984,6	15 497,0	109,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 346,4	5 733,3	120,2
boshqa xizmat tarmoqlari	17 046,5	19 832,8	103,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **26 856,9** ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **4,5 %** ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,9	96,4
mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	3,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32,1	31,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,6	25,4
sanoat	17,8	17,7
qurilish	7,8	7,7
xizmatlar	42,3	43,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,0	16,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,3	6,0
boshqa xizmat tarmoqlari	21,0	20,8

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **96,4 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **3,6 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **31,5 %** ni, sanoat tarmog'i **17,7 %** ni, qurilish **7,7 %** ni va xizmatlar sohasi **43,1 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,1 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrida – 0,1 f.p.) ga ko'paydi .

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,5 %), sanoatda – 107,2 % (17,7 %), qurilishda – 111,1 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (43,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,6 % (16,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,2 % (6,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (20,8 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



5,9 %

YAHM

6,8 %



4,3 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,1 %



7,5 %

Sanoat

7,2 %



5,4 %

Qurilish

11,1 %




6,8 %

Xizmatlar

7,7 %

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024-yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan **110,2** foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – **110,9 %** va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – **110,2 %** qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik **65 894,7** mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – **57 394,3** mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi **69,2 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – **70,6 %**) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq

**Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

57 394,3

70,6 %

2025- yil

65 894,7

69,2 %

